



AHOLI SALOMATLIGI VA IQTISODIY FAOLIYAT DARAJA.

Xolboyev Bobur

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi boburxolboyev007@gmail.com

Tojiyev Javohir

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi abdullayevich2007@gmail.com

Annonatsiya: Ushbu maqolada aholi salomatligi va iqtisodiy faoliyat darajasi o'rtasidagi bog'liqlik, salomatlikning iqtisodiy o'sishga ta'siri va iqtisodiy faollikning inson salomatligiga salbiy ta'sirlari o'rganiladi. Sog'lom aholi mehnatga layoqatli bo'ladi, bu esa ishlab chiqarishni va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Sog'liqni saqlashga investitsiya kiritish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash haqida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy taraqqiyot, tibbiy xarajatlar, aholi salomatligi, mehnat unumdorligi, innovatsion faoliyat, ishlab chiqarish

KIRISH

Aholi salomatligi har qanday davlatning eng muhim boyligi hisoblanadi. Sog'lom inson – sog'lom jamiyatning asosiy tayanchi, iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchidir.

Salomatlik darajasi nafaqat tibbiy ko'rsatkichlar bilan, balki aholining ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hayotidagi faol ishtiroki bilan ham belgilanadi. Iqtisodiy faoliyat darajasi esa mamlakat aholisi tomonidan amalga oshirilayotgan mehnat, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hamda innovatsion jarayonlarda ishtirok darajasini bildiradi. Ushbu ko'rsatkichlar bevosita sog'liq holati bilan bog'liq: sog'lom inson mehnatda faol, unumdor va ijodkor bo'ladi, bu esa iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Sog'lom aholining mavjudligi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, tibbiy xarajatlarni kamaytiradi va davlat byudjeti uchun qo'shimcha iqtisodiy foyda keltiradi. Shu bois ko'plab mamlakatlarda sog'liqni saqlash tizimiga investitsiya kiritish uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga sarmoya sifatida qaraladi.

Bugungi kunda aholi salomatligi va iqtisodiy faoliyat darajasi o'zaro chambarchas bog'liq jarayonlardir. Agar aholi orasida surunkali kasalliklar, nogironlik yoki mehnatga layoqatsizlik ko'payib borayotgan bo'lsa, bu mehnat unumdorligini pasaytiradi va iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Aksincha, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, sport bilan shug'ullanish va sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish iqtisodiy faollikni oshiradi.

O'zbekiston sharoitida so'nggi yillarda aholining salomatligini mustahkamlashga katta e'tibor berilmoqda. Sog'liqni saqlash tizimida islohotlar o'tkazilmoqda, profilaktika, sog'lom ovqatlanish, onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha dasturlar joriy etilgan.

Shuningdek, "Sog'lom turmush tarzi" va "Yoshlar sog'lom bo'lsin" kabi tashabbuslar jamiyatda jismoniy faollik va mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Sog'lom aholiga ega mamlakatda iqtisodiy rivojlanish sur'atlari yuqori bo'ladi.

Chunki bunday jamiyatda ishlab chiqarish samaradorligi oshadi, innovatsion faoliyat kuchayadi va aholi farovonligi yuksaladi.

Shu sababli sog'liqni saqlash tizimiga sarmoya kiritish nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy jihatdan ham eng foydali yo'nalish hisoblanadi.



Rasmda xizmatlar sohasining turli segmentlari bo'yicha ulushi ko'rsatilgan. Bu ko'rsatkichlar mamlakat iqtisodiy faoliyatining qay darajada diversifikatsiyalashganini, aholi farovonligiga ta'sir qiluvchi omillarni ham aks ettiradi.

Iqtisodiy faoliyat darajasi yuqori:

- 1.Savdo, moliya va transport xizmatlari ulushi yirik.
- 2.Ichki bozor faolligi kuchli.
- 3.Investitsiya imkoniyatlari keng.
- 4.Aholi salomatligi bo'yicha holat barqaror, ammo rivojlantirish zarur:
- 5.Raqamli sog'liq (aloqa/axborot) nisbatan past ulushga ega.
- 6.Ta'lim sektorining ulushi kam — bu sog'lom turmush madaniyati shakllanishiga ta'sir qiladi.
- 7.Yashash va ovqatlanish xizmatlari o'rtacha darajada — sharoitlar yaxshilanishi salomatlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa.

Aholi salomatligi va iqtisodiy faoliyat darajasi bir-biridan ajralmas tushunchalardir. Sog'lom inson – mehnat unumdorligining, barqaror iqtisodiyot esa sog'lom jamiyatning kafolatidir. Shunday ekan, har bir davlat, xususan O'zbekiston uchun, sog'lom avlodni tarbiyalash va aholining salomatligini mustahkamlash — milliy iqtisodiyotning barqaror kelajagini ta'minlaydigan eng muhim vazifalardan biridir.

Taklif.

1. Profilaktik tibbiy ko'riklarni kuchaytirish - har yili bepul umumiy ko'rik dasturlarini kengaytirish.
2. Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish - sport maydonchalari sonini oshirish, yoshlar uchun bepul trenajyor zallari tashkil etish.
3. Yangi ish o'rinlari yaratish - qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi kichik korxonalarini ko'paytirish.
4. Aholining bandligini oshirish - ayollar va yoshlar bandligi uchun maxsus dasturlar.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bredixina N. V. aholining sog'lom turmush tarziga yo'nalishi: mintaqaviy jihat: fanlar. Chelyabinsk, 2006 yil. 153 s.
2. Buzinov R. V., kiku P. F., Unguryanu T. N., Yarygina M. V., Gudkov A. B. Pomoryadan Primoryegacha: aholi salomatligining ijtimoiy-gigienik va ekologik muammolari. Arxangelsk: Shimoliy davlat nashriyoti.asal. un.ta, 2016 yil. 396 s.
3. Veremchuk L. V., kiku P. F., Jernova M. V. Primorsk o'lkasida saraton tarqalishining ekologik bog'liqligini tizimli modellashtirish // nafas olish fiziologiyasi va patologiyasi Byulleteni. 2011. Qopqoq.41. 48-53-betlar.
4. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti. URL: <http://www.euro.who.int> (kirish sanasi: 01.07.2016).
5. Egorova A. M., Mirzonov V. A., Saarcoppel L. M., Fedina I. N. genitoüriner tizim patologiyasining xavf omillari va oldini olish // Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash. 2009. №3. 44-47-betlar.
6. Juravleva I. V. aholi salomatligi fanlararo muammo sifatida: sog'liqni saqlash sotsiologiyasining shakllanishi // Rossiyada Sotsiologiya / Ed. M.: ras is, 1998 yil. 484-489-betlar.
7. Urazbekovna, T. K. (2024). ROLE OF PUBLIC POLICY IN CHANGES IN POPULATION INCOME. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(22), 316-321.
8. Ziyodullaev, N., & Ziyodullaeva, M. (2023). FINANCIAL LITERACY, INTERRELATIONSHIP OF POPULATION INCOME AND EXPENDITURE. *Science and innovation*, 2(B12), 881-887.